

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## O‘ZBEK XALQ SEHRLI ERTAKLARIDA TUSH MOTIVI

Abdukamol ABDUJALILOV,

O‘z RFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290770>

**Rezyume:** Maqolada o‘zbek xalq sehrlil ertaklaridagi tush motivi va uning ba‘zi xususiyatlari, genezisi haqida haqida so‘z boradi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** ertak, syujet, motiv, tush motivi, tush ta‘biri, Qur‘oni karim, genezis, xabar.

**Резюме:** В статье рассматривается мотив сна в узбекских народных волшебных сказках, некоторые его особенности и генезис.

**Ключевые слова и выражения:** сказка, сюжет, мотив, мотив сна, толкование сна, Коран, происхождение, сообщение.

**Resume:** The article examines the motif of dream in Uzbek folk fairy tales, some of its features and genesis.

**Key words and expressions:** fairy tale, plot, motive, dream motive, dream interpretation, Holy Quran, genesis, message.

Ma‘lumki, tush o‘ziga xos jismoniy va ruhiy holat bo‘lib, insoniyat Yer yuzida yashab kelayotganidan buyon u haqida gapirilgan, ta‘bir qilingan. Ko‘rilgan tush yomon bo‘lsa, uni kelajakda sodir bo‘ladigan qandaydir yomon bir ishga ishora sifatida, yoxud yaxshi tush bo‘lsa, xushxabar o‘laroq baholash qadim-qadimdan mavjud.

Shunga qaramay, tush va tush ko‘rishni diniy jihatdan baholash ilk o‘rta asrlarda, sof ilmiy jihatdan o‘rganish hamda uni tadqiq qilish ishlari nisbatan keyingi davr, XX asrning boshlarida sodir bo‘ldi. Quyida shularga biroz kengroq to‘xtalib o‘tamiz:

Tush va u bilan bog‘liq holatlar haqida xabar beruvchi ilk ilmiy manba Islom dinining muqaddasi kitobi Qur‘oni karim bo‘lib, Yusuf surasida uchta tush hamda ularning ta‘biri bilan bog‘liq lavhalar keladi.

Bunda birinchi tush Yusuf alayhissalomning yoshlik paytida ko‘rgan tushi; ikkinchi tush Yusuf alayhissalomning Misrdagi zindonda yotganida yonidagi ikki mahbusning ko‘rgan ikki tushi; uchinchi tush esa, Misr humdorining tushi. Ularning qisqacha bayoni quyidagicha:

Birinchi tush Qur‘oni karimda shunday bayon qilinadi:

“Eslang, Yusuf (o‘z) otasiga (Ya‘qubga) dedi: “Ey otajon! Men (tushimda) o‘n bitta yulduz, Quyosh va Oyni menga sajda qilayotgan hollarida ko‘rdim”. (Otasi) aytdi:

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

“Ey o‘g‘ilcham! Tushingni birodarlaringga so‘zlab bermagin! Aks holda senga qattiq makr qilishadi. Zero, shayton insonga aniq dushmandir. Shu (tushingda ko‘rganing) kabi Rabbing seni tanlab oladi, senga gaplar (tushlar yoki ilohiy kitoblar) mazmunini o‘rgatadi va ikki bobolaring – Ibrohim va Is‘hoqqa to‘la bergani kabi, senga va Ya‘qub nasliga (O‘zining) ne‘matini to‘la baxsh etadi. Albatta, Rabbing bilim va hikmat egasidir”. [1;625]

Demak, Yusuf alayhissalom bolaligida o‘n bir yulduz, quyosh va oyning o‘zlariga ta‘zim qilib turganlarini tushida ko‘radi. Bu haqida otasi Yaqub alayhissalomga xabar berganida esa, otasi bu tushning ilohiy tush ekanligini payqab, o‘g‘liga tushini akalariga aslo aytmashligini, aks holda o‘ziga biror zarar yetkazishini ta‘kidlaydi. So‘ng tushning ta‘biri sifatida Yusuf alayhissalomga “Bu tushingda ko‘rganningdek, Robbing seni mening avlodarim orasidan tanlab oladi, senga hikmat beradi va bobolaring Ibrohim hamda Is‘hoq kabi sharaflantiradi” deydi.

Keyinchalik akalarining yomonliga sababidan Misrga borib qolgan va boshiga bir qancha og‘ir sinovlar tushib, zindonband qilingan Yusuf alayhissalomga zindondagi ikki maxbus o‘z tushlarini aytib beradi.

Birinchi mahbus Misr hukmdorining soqiysi edi. U tushida hukmdor uchun may tayyorlayotgan bo‘ladi. Ikkinchi mahbus hukmdorning nonvoyi bo‘lib, u tushida boshi ustida bir savat non ko‘tarib turganini, qushlar kelib uning savatidagi nonlardan cho‘qib ketayotganlarini ko‘radi. Ularning har ikkisi Yusuf alayhissalomdan o‘z tushlarining ta‘birlarini so‘raydi. U esa quyidagicha javob beradi:

“Ey ikki hamzindonlarim! Endi, sizlarning biringiz (ko‘rgan tush)ga kelsak, (u ozod etilib, yana) xojasiga soqiylik qilur. Unisi bo‘lsa, (dorga) osiladi va uning boshidan qushlar (cho‘qib) yeydi. Sizlar javobini so‘ragan ish (tush ta‘biri) tugadi”. [1;125]

Yusuf alayhissalom ikki mahbusga tushlarini ta‘bir qilib bergach: “Yaqinda siz ikkingiz bu zindondan chiqursiz, shunda men haqimda hukmdorga xabar bering”, deb iltimos qiladi. Oradan ko‘p o‘tmay, bu ikki mahbus zindondan chiqariladi. Soqiy yana o‘z vazifasiga qaytadi, nonvoy esa dorga osiladi. Lekin o‘z vazifasiga qaytgan soqiy Yusuf alayhissalomga bergan va‘dasini unutib, hukmdorga u haqida hech nima demaydi.

Oradan bir qancha vaqt o‘tib, endi Misr hukmdorining o‘zi qiziq bir tush ko‘radi. Bu tush tafsiloti Qur‘oni karimda shunday keladi:

“Shoh (bir kuni) dedi: “Men tushimda yettita ozg‘in sigir yettita semiz sigirni yeyayotganini va yettita yashil boshqoq bilan birga boshqa (ettita) qurigan boshqoqlarni ko‘rdim. Ey a‘yonlar! Agar tush ta‘birini aytuvchi bo‘lsangiz, tushim

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

*to‘g‘risida fatvo (javob) beringiz!” (A‘yonlar) aytdilar: “(Bu) chalkash tushlar. Biz (bunday) tushlar ta‘biriga olim emasmiz”. Ikki (mahbuslar)dan ozod bo‘lgani (soqiy) bir qancha muddat (etti yil) o‘tgach, (Yusufni) eslab dedi: “Uning ta‘birini men aytib berurman. Meni (Yusuf huzuriga) yuboringiz! ” (U borib dedi): “Yusuf! Ey rostgo‘y odam! Bizga yettita ozg‘in sigir yettita semiz sigirni yegani hamda yettita yashil boshog bilan birga turgan boshqa (etti) quruqlari to‘g‘risidagi (tush) fatvosi (ta‘biri)ni aytib bergin. Shoyad, odamlar oldiga borganimda zora, ular ham (buni) bilib olishsa”. (Yusuf) aytdi: “Odatlaringiz bo‘yicha yetti yil ziroat qilaverasiz. Olgan hosilingizni (omborda) boshog‘i bilan qoldiringiz. Faqat ozgina o‘zingiz yeydiganingizni (yanchib olingiz!) So‘ngra, undan keyin qattiq yetti (yil) keladi va shu (qahatchilik yil)lar uchun g‘amlab qo‘ygan zaxirangizni yeb ketadi. Faqat ozgina asrab qo‘yganingizdan (qolur). So‘ngra, undan keyin bir yil kelib, odamlar unda yomg‘irga serob bo‘lurlar va unda (mevalardan) sharbat olurlar”. [1;131]*

Islom dinining payg‘ambari Muhammad alayhissalomning tush haqidagi hadisleri ilk diniy-ilmiy mazmundagi ilk tushunchalarni ifoda etadi. Ulardan ba‘zilari quyidagilar: Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

**“Nabiy sollallohu alayhi vasallam shunday dedilar: “...Tush uch xildir: Solih tush Allohdan sevinch bashoratidir. Mahzun tush shaytondandir. Kishi ko‘nglidan o‘tkazgan narsani tushida ko‘rishi. Agar biringiz o‘ziga yoqmagan narsani tush ko‘rsa, o‘rnidan turib, namoz o‘qisin. Uni (yomon tushni) odamlarga aytmasin».**[2;375]

\*\*\*

Abu Sa‘id Xudriy roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

**“Nabiy sollallohu alayhi vasallamning shunday deganlarini eshitganman: “Birortangiz o‘zi yoqtirgan tushni ko‘rsa, u faqat Alloh dandir, buning uchun Allohga hamd aytsin va uni aytib beraversin. Agar undan boshqa, o‘zi yoqtirmagan tushni ko‘rsa, u faqat shaytondandir. Shuning uchun uning yomonligidan panoj so‘rasin va uni hech kimga aytmasin, shunda unga zarar qilmaydi”.**

\*\*\*

Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

**“Rasululloj sollallohu alayhi vasallam shunday dedilar: “Agar biringiz o‘zi yoqtirmaydigan tush ko‘rsa, uch marta chap tarafiga tuflab yuborsin, uch marta shayton(ning yomonligi)dan Allohdan panoj so‘rasin-da, yotgan tarafidan boshqa tomonga o‘girilib olsin”. [2;111]**

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Muhammad alayhissalomning hadislaridagi fikrlarga ko‘ra, tush uch xil bo‘ladi: rahmoniy, ya’ni yaxshi tushlar; shaytoniy, ya’ni yomon tushlar va kishi o‘zi o‘ylagan narsalarini ko‘radigan tush.

Keyingi davrda Islom dining ulamolaridan biri tobein va mashhur muhaddis olim Shayx Muhammad ibn Sirrin (650–728) tushlarni maxsus o‘rgandi va “Tushlar ta’biri” nomli asar yozdi. [3;764]

G‘arbda tushni maxsus ilmiy o‘rganish Zigmund Freyding tadqiqotlaridan keyin boshlandi va uning shogird hamda izdoshlaridan Karl Yung, Erix Frommlar bu borada izlanish olib bordilar. [4, 62; 5, 141; 6, 111]

Jahon folklorshunoslida esa folklor namunasi tarkibida keluvchi tushga nisbatan bir qancha fiklar bildirilgan, biroq maxsus ilmiy tadqiqot qilinmagan.

Bu borada o‘zbek folklorshunosligida amalga oshirilgan Jabbor Eshonqulovning maxsus tadqiqoti esa juda qimmatli va muhim ahamiyatga ega. [7;221]

Olim tushni o‘zbek folklorining barcha janrlari misolida chuqur tadqiq qiladi hamda folklorshunoslikka muhim nazariy va ilmiy qarashlar hamda yangiliklarni taqdim etadi.

Tush motivi o‘zbek xalq sehri ertaklaridan “Erkenja”, “Gulpari”, “G‘ulombachcha”, “Qiron aka”, “Xolmirzajon”, “Oypari” va “Ilmxon”, “Murqumomo” kabilarning syujeti tarkibida ishtirok etadi.

“Oypari” va “Qiron aka” ertaklarida tush motivi syujet avvalida kelib, asarning to‘liq syujeti shu tushda ko‘rgan narsani qo‘lga kiritish yoki uning ta’birini bilish maqsadi ustiga quriladi.

“Oypari” ertagidagi (variantlari “Sotilgan tush”, “Musofirbek”) tush motivining tasviri quyidagicha:

“Bor ekanda, yo‘q ekan, och ekanda to‘q ekan, o‘tgan zamonlarning birida Husanboy ismli kambag‘al bir bechora yigit bo‘lgan ekan, uning yotarga uyi, turarga joyi ham yo‘q ekan. Tug‘ilib o‘sgan qishlog‘idagi eski masjidning hujrasida yotib yurar ekan. Husanboyning qiladigan hunari ertalab qir-adirlarga borib, ertadan kechgacha to‘rt-besh bog‘ shuvoq yular ekan-da, uni orqalab bozorga olib chiqib sotib, puliga non-pon olar ekan. Sotgan o‘tini kundalik tirikchiligiga zo‘rg‘a-zo‘rg‘a yetar ekan. Husanboy har kuni ertalab o‘rnidan turganda:

– Ey xudo, bor qilsang bor qil, bu tirikchilik jonimga tegdi, jonimni olsang olib qo‘ya qol, – der ekan.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Kunlardan bir kuni, uzoq bedor tunlardan bir tuni, hujrasida och-nahor yotib, bir tush ko‘ribdi. Tushida boshiga oy tuqqan emish; oyog‘iga kun tuqqan emish; kindigiga cho‘lpon uyalagan emish. Cho‘chib uyg‘onsa, tushi emish”. [8, 186]

Shundan keyin u ana shu tushining ta‘birini bilish maqsadida safarga chiqadi va ko‘p sarguzashtlarni boshdan kechirib, davlatli, qallig‘li va baxtli holda uyga qaytadi. Bu ertakdagi qahramoning “tushida boshiga oy, oyog‘iga kun tuqqani, kindigiga cho‘lpon yulduzi uyalagani” Yusuf alayhissalom qissasidagi birinchi tush bilan mazmunan bir xildir. Bunday tushlar qahramoning kelajakdagi qo‘lga kiritadigan mavqeyi bilan aloqador.

“Qiron aka” ertagi syujetida ikkita tush motivi ishtirok etadi. Ularning birinchisi asar syujetining avvalida kelib, qahramon bir kuni yotib tushida pari qizni ko‘radi. Syujetning keyingi voqealari ana shu parini qo‘lga kiritish bilan bog‘lanadi. Bu tush ertak mantida shunday keladi:

“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir podshoning birgina o‘g‘li bor ekan. U bir kuni tushida bir pari qizni ko‘ribdi. Uyg‘onsa tushi emish. Shundan keyin u gapirmabdi ham, kulmabdi ham. Podsho o‘g‘lining ahvoliga achinib yig‘labdi. Oradan bir necha kun o‘tgach, podsho vazir-vuzarolarini chaqirib:

– Kimki mening o‘g‘limni gapirtirsa, yoki kuldirsa, istaganini beraman, – debdi. Bu so‘z xaloyiq orasiga yoyilibdi. “Podshoning o‘g‘lini men kuldiraman” deb, har tomondan odamlar kela beribdi, Shahzodani kuldirish u yoqda tursin, hatto hech kim gapirtira olmabdi ham.

Podsho juda xafa bo‘lib: “Men shunday katta podsho bo‘lsam, keksaygan chog‘imda bir o‘g‘il ko‘rgan bo‘lsamu, uni ham gapirtira olmasam, men podsho bo‘lib nima qildim?” deb o‘ylab yaqin odamlarini chaqirib: “Yurtimizda kelmagan biror odam qoldimi”, debdi. Bir vaziri turib:

– Ey taqsir, kelib o‘g‘lingizni ko‘rmagan bir kampir qoldi, u falon tegirmonchining onasi, o‘tirsam tura olmaydi, tursa yura olmaydi, – debdi.

Podsho kampirga darrov navkarlarini yuborib, uni tilla zambilda keltiribdi. Kampir shahzodani ko‘rib, unga qarab:

– Ha, bolam, tushingda pari ko‘ribsan-da, – debdi.

Shahzoda birdan kulib yuboribdi, o‘rnidan turib yugurib kampirning yoniga kelib:

– Enajon, siz menga aytib bering. Qanday qilsam o‘sha pariga yetishaman? – debdi.

Kampir:

– Shahrimizdan yetti kunlik naridagi tog‘ning boshida mening inim Qiron yashaydi.

Qironning yoniga borsang, u senga topib beradi, – debdi”. [9, 25]

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Ushbu ertakdagi Qiron (xomiy) tomonidan ko‘rilgan tushda esa, qahramonning xavf ostida ekani xabar qilinadi.

“Oypari” ertagidagi qahramon tushining ta’birini bilish uchun o‘zi safarga chiqqan bo‘lsa, “Qiron aka” ertagida qahramon tush ko‘rgach, tildan qoladi. Kampirning xabaridan keyin esa o‘ziga Qiron yordam berishini bilib, safarga otlanadi.

“Erkenja”, “G‘ulombachcha”, “Xolmirzajon”, “Ilmxon” ertaklarida esa tush motivi asar o‘rtasida kelib, qahramonning keyingi harakatini belgilab beradi. Yoki unga qo‘shimcha xabar berish uchun xizmat qiladi.

Tush motivi ba’zan xavfdan ogohantirish bo‘lib kelsa, ba’zan qalliq, mol-dunyo yoki farzandli bo‘lish haqidagi mujda sifatida ham namoyon bo‘ladi.

“Ilmxon” ertagida tush farzandli bo‘lish haqidagi xabar sifatida keladi:

“Xorazm viloyatida Odilxon degan bir podsho bo‘lgan ekan. Uning na o‘g‘li, na qizi bo‘lgan ekan. Odilxon oltin yoshga kirib, frazandi yo‘qligi uchun ko‘p ohu fig‘onlar tortib, xudoga nola qilar ekan, avliyolarga borib ehson qilarkan. Uning ko‘p tonglari Shopir va Polvon ota hujralarida otibdi. Lekin bu avliyolardan ham bir madad topmabdi. Yig‘lay-yig‘lay ko‘zlari ojiz bo‘lib qolibdi.

Kunlarning birida u bir avliyoning qabri yonida tunabdi. Shu kuni tush ko‘ribdi. Tushida xotini Gulchinoroyim qo‘lida oltin soqqa o‘ynab turgan emish. Podsho uyqusidan uyg‘onib, shu yerda o‘tirgan mujavvildan tushining ta’birini so‘rabdi. Shunda u Odilxonga:

– Xotining kuchli, quvvatli, molu mulkli, baxtli saodatli bir o‘g‘il tug‘ib beradi, – debdi.

Podsho mujavvilga oltinlar berib, uning duosini olibdi-da, xotini Gulchinoroyim bilan birga o‘ynab-kulibdi”. [9, 153]

Umuman olganda, o‘zbeu xalq ertaklaridagi tush motivi mohiyatan xabarga teng bo‘lib, uning oddiy xabardan farqi tushda ko‘rilishi va ezoterik olam bilan bog‘liqligida ko‘rinadi. Ya’ni tush go‘yoki insonni boshqa yuqori olam bilan bog‘lovchi, undan xabar beruvchi vosita sifatida badiiy talqin oladi.

Shuningdek, qayd etish kerakki, sehrlil ertaklar tarkibidagi tush motivlari muqaddasi ilohiy kitob Qur’oni karimdagi Yusuf alayhissalom qissasidagi tushlar bilan bir o‘zakda turadi. Ertakda badiiy tasvir va talqin olgan bu tushlar yuqoridagi tushlar bilan variatsiya hosil qiladi.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржимон ва муфассир: Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: “Sano-standart”, 2021.
2. Имом Муслим. Саҳиҳи Муслим. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 1997;
3. İbni Sirin. Būyük rüya tabirleri. – İstanbul: Huzur Yayınevi, 2003. – 972 s.
4. Фрейд З. Толкование сновидений. – Мн.: Поппурри, 1997;
5. Юнг К.Г. Аналитическая психология. М.: Мартис, 1995;
6. Фромм Э. Душа человека. – М.: Республика, 1992.
7. Эшонкул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Тошкент: Фан, 2011. – 304 б.
8. Олтин бешик. Ўзбек халқ ижоди кўп жилдлик / Нашрга тайёрловчилар: М.Афзалов, К.Имомов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1985.
9. Сув қизи. Ўзбек халқ ижоди кўп жилдлик / Нашрга тайёрловчилар: М.Афзалов, З.Хусаинова, Н.Сабуров. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1966.